

## MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARDA GENDER TARBIYASINI TASHKIL ETISH USULLARI

**Madaminova Muxayyo Zaripovna**

**Xorazm viloyati Xiva shahar 3-sonli  
KTIDMTT Defektologi**

**Masharipova Xursand Maratovna**

**Xorazm viloyati Urganch shahar  
22 - son KTIDMMTT defektologi**

### **Annotatsiya**

Maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda gender tenglikning ijtimoiy-psixologik jihatlariga to'xtalib o'tilgan. Shuningdek maktabgacha ta'lim yoshidagi o'g'il bolalar va qiz bolalar o'rtasidagi qarama-qarshilik, ijtimoiy tenglik tamoyillari pedagogik va psixologik usullar orqali ilmiy jihatdan tahlil qilib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Gender, Jins, Determinizm, Gender tarbiya, Jinsiy tarbiya, Jinsiy madaniyat, Jinsiy munosabat

## **METHODS OF ORGANIZING GENDER EDUCATION IN PRESCHOOL AGE CHILDREN**

### **Annotation**

The article deals with the socio-psychological aspects of gender equality in preschool children. Also, the contradiction between boys and girls of preschool age, the principles of social equality are scientifically analyzed using pedagogical and psychological methods.

**Keywords:** Gender, Sex, Determinism, Gender Education, Sexual Education, Sexual Culture, Sexual Attitude.

Maktabgacha yoshdagi bolalar gender tarbiyasini tashkil etishni tadqiq qilishda - "gender" va "jins" tushunchalarining mazmun va hajmini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Chunki bugun ayrim adabiyotlarda "gender" atamasini "jins" atamasining sinonimi sifatida ham ishlatishmoqda.

Umuman "gender" tushunchasining mazmuni, hajmiga nisbatan munosabatlar tahlil qilinganda biz uch yo'nalishni: biologik determinizm, ijtimoiy konstruktivizm va bioijtimoiy konstruktivizmi ko'ramiz.

Biologik determinizmida ayollar va erkaklar o'rtasidagi cheksiz farqlar sabablari asosan ularning biologik jinslar ekanligidan kelib chiqqan holda tushuntiriladi. Genderdagi ijtimoiy-ruhiy sifatlar ham biologik jinslar orqali izohlanadi. Bunda Z. Freyd psixoanalizi motivlari ham ishtirok etadi. Biologik determinizmida "gender" tushunchasi mazmun va hajmini belgilovchi omil berilgan va o'zgarimas biologik omildir. Biologik jins esa o'zi-o'zi bilan chegaralangan universal tipdir. Mavjud biologik reallik jinsiy xilma-xilliklar dunyosiga olib kiradi va hukumron ikki jins to'g'risidagi ilmiy narrativga mos kelavermaydi. Inson organizmining jinslarga ko'ra xilma-xilligini uzliksiz spektr sifatida tushunish kerak. Biologiya bilan bog'liq barcha belgilar barcha erkaklarni barcha ayollardan farqlash imkonini bermaydi. Chunki, ularda alohida olingan bir jinsning mohiyatini ifodalaydigan umumiy bir belgilar kompleksi mavjud emas.

Ijtimoiy konstruktivizm tarafdorlari esa genderning biologik omil ekanligiga befarq qaraydilar. Ularda gender rollar jamiyatda shakllanadi. Ayollar-ayol, erkaklar-erkak bo'lib tug'ilmaydilar balki

shunday bo'lib shakllanadilar deb hisoblashadi. Erkak va ayol ijtimoiy kategoriya sifatida turli xildagi ijtimoiy kontekstlarda yaratiladi va ishlatiladi, turli xildagi shakllarga ega bo'lib turli mazmunlar bilan boyitiladi, ayollar va erkaklar o'rtasidagi ko'plab farq sabablari biologik farqga borib taqalmaydi. Agar gender farqlar ruhiy, madaniy va ijtimoiy kabi omillar bilan bog'liq bo'lsa jinsiy farqlar faqat jismoniy, anatomik, fiziologik farqlar bilan cheklanadi. Gender farqlar konstruksiyasi ijtimoiy konstruktivizmga asoslanadi. Ushbu model avtorlari odamlar o'rtasidagi farqlarning tabiiy ildizlariga befarqroq qaraydilar va ularni ijtimoiy jarayonlar bilan bog'lab tushuntirishga harakat qiladilar.

Biosotsial determinizm tarafdorlari fikrlariga ko'ra jumladan bizning fikrimizcha maktabgacha bolalar gender tarbiyasini tashkil etish va amalga oshirishda genderni ijtimoiy jins sifatida olib qarash va undan ushbu jarayonni belgilovchi tushuncha sifatida foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki, odamlar dastlab biologik jinslar sifatida bir-birlaridan farq qiladilar. Ular tug'ilishidan erkak va ayol bo'lib tug'iladilar. Ushbu farqlar asosida ularda ijtimoiy sifatlar shakllanadi va erkak-erkak, ayol-ayol rolini bajarishga kirishadi. Ayollar va erkaklar turmush tarzi, xatti-harakatlari, imkoniyatlari, huquqlari, ularning jamiyatdagi o'rni albatta ularning biologik jinsi asosida qurilgan sotsial konstruksiyadir.

“Gender” tushunchasining mazmuni kontekstda ilmiy kategoriya, ilmiy tadqiqotlar kategorial apparati elementi, mamlakatdagi ijtimoiy guruh va guruhlararo munosabat sub'ektini anglatuvchi hamda davlat va ijtimoiy guruhlar munosabatini, guruhlararo siyosiy munosabatni anglatuvchi kategoriya sifatida ham ishlatiladi. Chunki, u o'zida gender munosabatlaridagi tengsizlikni tanqid qilish, mavjud ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirish, yangi ijtimoiy munosabatlarni gender tengliligiga ko'ra qaror topdirishni talab etuvchi mazmunni tashiydi. Bugun “gender” jamiyatdagi tengsizlik bilan bog'liq aholini guruhlariga bo'lishda yordam beradigan kategoriya sifatida ham qaralmoqda. Bunda biologik jins ijtimoiy konstruksiyalashda ham qo'l kelmoqda.

Dastlabki feministik nazariyalarda “gender” faqat ijtimoiy kontekstga bog'liq konstruksilashtiruvchi kategoriya bo'lib xizmat qilgan. Shunday qilib jinsiy deformizm tabiat in'omi emas balki, biologik reallikni mulohaza qilishning insonlar tomonidan kashf etilgan uslubidir. Bugun o'zgartirib bo'lmaydigan tassavurimizni masalan “genetik jins”ni olimlar foydalanayotgan texnologiyalariga ko'ra o'zgartirmoqdalar.

Gender rollarini o'zlashtirish va uni avloddan avlodga erkaklar va ayollar ijtimoiy nisbati to'g'risidagi tartib-qoidalardan kelib chiqqan holda uzatish ushbu millat turmush tarziga aylangan, onglanmagan tengsizlik imkoniyatlari, erkaklarning rasman ustunligi, ayollarning esa qaysi bir ma'noda cheklanishiga sharoit yaratdi. Ayollarning ma'lum bir ma'noda ijtimoiy cheklanganliklari juda ko'p muammolarni, hatto jiddiy diskriminatsiyagacha bo'lgan munosabatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Bugun davlat hokimiyatining genderga tizimlashtiruvchi munosabat sub'ekti sifatida qarashi bir tomondan murakkablashmoqda, ikkinchi tomondan esa, bir qator masalalarga aniqliklar kiritilmoqda.

Ayrim hozirgi zamon tadqiqotchilari biologik jinslarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yib va shu asosda ularning tabiatini o'rganish umuman mumkin emas, deb hisoblaydilar.

Bizning nazarimizga ko'ra “gender” va “jins” o'rtasidagi farqlarni tipiklashtirish, klassifikatsiyalash va tizimlashtirishda ushbu masalani hal qilayotgan mamlakat, millatning etno-madaniy taraqqiyot holatini hisobga olish kerak. Masalan, O'zbekistonda gender tengsizligini bartaraf qilish masalasi endi boshlandi. Shuning uchun erishilayotgan yutuqlarimiz Yevropa mamlakatlaridagidan albatta farq qiladi. Har bir millatning o'z tarixi, tabiati, iqlim sharoiti va qadriyatlarini, dunyoqarashi bor. Millatning turmush tarzi taraqqiyotini rejalashtirish bir tomondan

umuminsoniy taraqqiyot tendensiyalari bilan uzviy bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, jarayon sub'ektlarining o'ziga xosliklari bilan ham chambarchas bog'langandir. Masalani ushbu holatda qo'yish, uni muhokama qilish mahsuldor xulosalarni beradi deb o'ylaymiz.

Maktabgacha bolalar gender tarbiyasida jinsiy va gender tarbiyasini farqlash muhim masala hisoblanadi.

Jinsiy tarbiya bolaning jinsiy fiziologik rivojlanish xususiyatlarini jinsiy tizim tashqi ko'rinishi normadami, qaysi birlari normadan ortiq ekanligini bilish asosida amalga oshadi. Odatda jinsiy tarbiya bilan tibbiyot xodimlari shug'illanib kelganlar. Mazkur tarbiya keng jarayon bo'lib u o'z ichiga bolani jinsiy hayot asoslari bilan tanishdirishni, unda gigienik ko'nikmalarni shakllantirishni, bolani o'z tanasi tuzilishi bilan tanishtirishni, erkak va ayol organizmlarining o'ziga xosligini, ularning anatomik, fiziologik farqlanishini bilishi kabilarni oladi. Jinsiy differensiyalanish bolaning o'z jinsiga ta'luqli ekanligini bilishi va o'zlashtirishidir.

“Gender tarbiya”si tushunchasidan esa pedagoglar foydalanadi. Bunda biz “gender” deganda tarbiya jarayonida shaxsning erkaklar va ayollarga xos ruhiy, ijtimoiy va madaniy farqlanishini o'z ichiga olgan ijtimoiy jinsni tushunishligimizni, shu asosdagi mavjud xususiyat va munosabatlarni esa gender munosabatlari deyishligimizni pedagogik jarayonlarga asos qilib olamiz. Ta'limda gender yondashuvi odatda bolaning o'zi o'zi ekanligini namoyish qilishiga individual yondashish hisoblanadi. Gender yondashuvi bolalarning qanday jinsga ta'luqli ekanligidan qat'iy nazar ularga tenglik tamoili qoidalariga ko'ra o'z imkoniyatlarini, intilishlarini, yangicha baholash, hayotiy maqsadlari, shaxsiy resurslarini amalga oshirish imkonini beradi.

Gender tarbiyasini amalga oshirishda qiz va o'g'il bolalarning anatomik, fiziologik o'ziga xosliklari, ularning ruhiy farqlari, imkoniyatlari asosini tashkil etishini hisobga olish kerak. Ushbu ruhiy farq ijtimoiy omillar – ijtimoiy muxit, tarbiya ta'sirida shakllanadi. Natijada biz qiz va o'g'il bolalar tarbiyasini ularning tug'ilishidan aniq bo'lgan hodisa deb emas, balki tabiiy imkoniyatlar va shunga mos va xos ijtimoiylashuvning murakkab aloqadorligi natijasida vujudga keladigan hodisa sifatida qarash imkoniga ega bo'lamiz.

Ushbu jarayonda oila, MTTlar pedagogik jamoasining, vrach, bolani qurshab turgan muhitning roli benihoya katta. Mazkur jinsiy va gender tarbiyasi birinchidan, o'ziga xoslikka ega bo'lgan mustaqil tarbiya yo'nalishlari hisoblanadi. Har bir yo'nalishning o'ziga xos yonlashuvi, usuli va vositalari mavjud. Ikkinchidan esa, ularni bizning nazarimizga ko'ra bir-biri bilan uzviy, chambarchas bog'liqlikda, o'zaro ta'sir asosida olib bormoq kerak. Demak, bunda vrach gender tarbiya asoslarini yaxshi o'zlashtirgan, gender pedagogi esa vrach malakasiga ega bo'lmog'i kerak. Mana shunday uyg'unlikda biz kutgan maqsadga erishamiz.

Yuqorida aytilganlardan tashqari ushbu nozik masalada yana bir muhim jihat bor. Bu - ushbu tarbiya jarayonidagi milliy-madaniy nazarning, dunyoqarashning o'rni. Bilamizki, O'zbek oilalarida ko'pchilik hollarda jins, jinsga aloqador holatlar benihoya sir tutiladi. U haqda gaplashish, uni muhokama qilish uyat hisoblanadi. Shu sababdan o'g'il va qiz bolalarimiz hayotga ko'rgan, kuzatgan, eshitgan gap so'zlari holatlariga ko'ra kirib keladilar va natijada ayrim hollarda bir qator noxush muammolarga ham duch keladilar. Vaxolanki, jinsiy tarbiya, jinsiy madaniyat, jinsiy munosabat madaniyati ijtimoiy hayotning asosiy zaminlaridan biri hisoblanadi. Insonning baxtli hayot asoslaridan biri bo'lgan ushbu tarbiyaga uyalib qarab keldik. Bugun gender tarbiyasi masalasi butunlay boshqacha qarashni, dunyoqarashni talab qilmoqda. Birinchidan, o'g'il va qizlar bir xil bola, ulardagi jinsiy farqlar ular o'rtasidagi insoniy munosabatlarni yanada mazmunli, ehtirosli, qiziqarli qilishi uchun xizmat qilishi kerak. Qiz bola qiz bola bo'lganligidan g'ururlanishi, iftixor tuyg'ulari bilan yashashi kerak. Ona bo'lish baxti avlodlar davomiyligini xarakterga keltirish baxti, millat, vatan

ramzi bo'lish baxti qizlarimizda belgilovchi qadriyat bo'lishiga erishmog'imiz kerak. Ular o'zlaridagi shu qadriyatlarga xos sifatlarini ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida namoyish qilishiga intilishlari lozim.

Qiz va o'g'il bolalar tarbiyasiga oid stereotiplarini bilish ham bolalar gender tarbiyasini tashkil qilish va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Xulosa o'rnida qaraganda oilada gender tarbiyasi bola tug'ilishi bilan o'z-o'zidan boshlanib ketgandek tuyiladi. Tug'ilgan bolaning jinsiga qarab kiyim-kechak, o'yinchoqlar olinadi, muomala, murod-maqсад va boshqalar tanlanadi. Lekin, ayni vaqtda bola ikki yoshga yetishi bilan o'z jinsini taniydi va 6-7 yoshga yetkanda unda jinsiy ta'luqlilik va gender konstantlik shakllangan bo'ladi. Ular o'g'il bolalar erkak, qiz bolalar ayol bo'lishligini tushunadilar va har qanday holatda qizlar ayol, o'g'il bolalar esa erkak bo'lishlikga o'zlarini tayyorlay boshlaydilar. Bunda ko'pchilik ota-onalar o'g'il bola o'zidan o'zi o'g'il bola bo'lib qoladi, qizlarimiz ham xuddi shunday bir pasda bo'yi yetib qolganini bilmay qolishadi deyishadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.Mamatov Maktabgacha yoshdagi bolalar gender tarbiyasini tashkil etishning metodologik masalalari.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 y 8 maydagi "O'zbekiston Respublikami maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori.